

KUN TARTIBI:

Yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati va uning raqamli bozorlarga tatbiq etilishi, raqobat siyosatidagi konseptual o‘zgarishlar, shuningdek, ushbu sohadagi mavjud tizimli muammolar muhokamasi to‘g‘risida

(*F. Karabayev, O.Nosirov, M.A'zamov, O.Parpiyev, M.A'zamov, P.Palkichev*)

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi O‘zbekiston Fintex Assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda “Raqamli bozorlarni (platformalarni) monopoliyaga qarshi tartibga solishga yondashuvlarini muhokama qilish” mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagagi PF-108-son “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bandiga muvofiq, “**Biz sizni eshitamiz!**” loyihasi joriy etilgan va ushbu loyihaning asosiy maqsadi tarmoqdagи tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, raqobatga to‘sиг bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Tadbir boshida Raqobat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari **F.Karabayev** tomonidan “Biz sizni eshitamiz!” loyihasi va uning ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati va uning raqamli bozorlarga tatbiq etilishi, raqobat siyosatidagi konseptual o‘zgarishlar, shu bilan bir qatorda ushbu sohadagi mavjud tizimli muammolar hamda ularning yechimlari haqida batafsил ta’kidlab o‘tildi.

Fintex Assotsiatsiyasi bosh direktori o‘rinbosari **O.Nosirov** o‘z kirish so‘zida bugungi kunning dolzarb mavzusidagi mazkur tadbirni tashkillashtirganliklari va yaqindan yordam bergenliklari uchun qo‘mita va hamkor tashkilotlarga o‘z minnatdorchiligini bildirib, tadbir yakunida vakolatli organlar, ekspertlar va biznes vakillari ishtirokida ishchi guruh tuzish taklifini bildirdi.

Shundan so‘ng so‘z Elektron tijorat Assotsiatsiyasi rahbari **M.A'zamovga** berildi. M.A'zamov o‘z so‘zida qo‘mita rahbariyatiga ekspertlar va biznes vakillari bilan yuzma-yuz ochiq muloqot tashkillashtirganligi uchun minnatdorchiligini bildirib, raqamli bozorlar juda tez rivojlanayonganligini va o‘ziga yarasha tahdidlar yaratayotganligi ayni haqiqatligini ta’kidlab o‘tdi. Biz bozor ishtirokchilari teng shart sharoitlarda raqobatlashishimiz kerak. Bizning maqsadimiz bozorni rivojlantirish va natijada iste’molchi ham biznes ham davlat ham foyda oladi. Yuqorida aytib o‘tilgan vakolatli organlar, ekspertlar va biznes vakillari ishtirokida tuziladigan ishchi guruhi barcha bozor ishtirokchilarining fikrini inobatga olib, takliflar ishlab chiqsa maqsadga muvofiq bo‘lishi ta’kidlab o‘tildi.

Tadbirda Raqobat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari **F.Karabayev** so‘z olib, o‘zaro muloqotni quyidagi savollar atrofida o‘tkazishni taklif qildi:

1. Raqobat to‘g‘risidagi yangi qonun, bozor ishtirokchilari uchun nimalar o‘zgardi.
2. Ex-ante yoki Ex-post: Raqamli platformalarni tartibga solish qanday bo‘lishi kerak?

3. Ustun mavqeni aniqlash uchun qanday mezonlarga asoslanish kerak?
4. Raqamli platformalar ustun mavqega egami yoki ustun muzokara kuchigami?
5. Iste'molchilar huquqlariga rioya qilishning asosiy talablari qanday bo'lishi kerak?
6. Raqamli bozorlar rivojlanishiga qanday tizimli muammolar va to'siqlar salbiy ta'sir qilmoqda.

Shundan so'ng F.Karabayev o'z taqdimotini boshladi. Taqdimotda Raqobat to'g'risidagi yangi qonundagi yangiliklar, jumladan, qonun bilan raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Qonunga ko'ra, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raqobat sohasidagi vakolatlari davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) hisoblanadi. Qonunga bir qator yangi, jumladan, monopoliyaga qarshi komplayens tushunchasi kiritildi. Monopoliyaga qarshi komplayens faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo'yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimididan iborat.

Monopoliyaga qarshi komplayens majburiy tartibda:

- respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda;
- tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda;
- oxirgi 3 yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o'rtacha yillik miqdori BHMning 100 ming baravaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslarda;
- oxirgi 3 yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o'rtacha yillik miqdori BHMning 100 ming baravaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi 50 foizni va undan ortiqni tashkil etadigan yuridik shaxsga tegishli bo'lган yuridik shaxslarda;
- yuridik shaxslarning birlashmalarida joriy etiladi.

Qonunda ustun mavqeni belgilashning yangi mezonlari kiritildi. Unga ko'ra, tabiiy monopoliya subyektlari ham ustun mavqega ega subyektlar qatoriga qo'shildi.

Shuningdek, ustun muzokara kuchi instituti kiritilib, unga muvofiq, ustun mavqega ega bo'lmanan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan bitim shartlarini, tovarlar realizatsiya qilinadigan hududni va narxni

belgilashga bir tomonlama ta'sir ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi ustun muzokara kuchi deb e'tirof etiladi.

Qonunga ko'ra, davlat xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar, eksklyuziv huquqlar, davlat mulkini imtiyozli narxlarda sotish va ijaraga berish, yer resurslaridan va yerosti boyliklaridan foydalanish huquqlarini imtiyozli shartlar asosida berish hamda boshqa preferensiyalar va afzalliklar tarzida davlat yordamini berishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilari uchun muhim bo'lgan **raqamli platforma** tushunchasi qonunda aks ettirilganligi ko'rsatib o'tildi.

raqamli platforma — raqamli mahsulotlardan Internet jahon axborot tarmog'i orqali haq evaziga yoki bepul foydalanishini ta'minlovchi axborot tizimi ekanligi qonunda o'z aksini topdi.

F.Karabayev o'z taqdimotida **raqamli platforma** tushunchasi to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tdi, jumladan Tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining, raqamli platforma operatorining ustun mavqeyini aniqlash va e'tirof etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birgalikda ustun mavqega ega bo'lgan deb e'tirof etilgan raqamli platforma operatoriga ma'lumotlar, texnologiyalar va raqamli mahsulotlardan foydalanish haqidagi talablarni belgilash orqali raqobatni cheklaydigan harakatlarni bajarish taqiqlanishi, ustun mavqega ega bo'lgan deb e'tirof etilgan raqamli platforma operatorining raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlarini aniqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi tushuntirib berildi.

Shundan so'ng **Elektron tijorat Assotsiatsiyasi** rahbari **M.A'zamov** so'z olib, hozirgi vaqtida biznes vakillarining ham, davlatning ham birinchi navbatdag'i asosiy vazifasi "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish ekanligini bildirib, ayni vaqtida soliq qo'mitasi hisob-kitobiga ko'ra "yashirin iqtisodiyot"ning ulushi 48%ni, boshqa tahlilchilarning fikricha 62%ni, shaxsan mening hisob-kitobimga ko'ra 80%ni tashkil etadi. Bu sharoitda yangi qonunchilikka asosan monopoliyaga qarshi tartibga solishni qo'llash, qonuniy ro'yhatdan o'tib faoliyat ko'rsatayotgan raqamli platformalarni qiyin ahvolga solib qo'yadi va ularning ham "soyaga" o'tib ketishiga turki beradi. Mening taklifim monopoliyaga qarshi tartibga solishni qo'llashdan oldin, ushbu qonunchilk talablarini buzgan subyektlarni yopiq eshiklar ortida dastlab ogohlantirib, keyinchalik qonunda belgilangan choralarini ko'rish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Tadbir davomida "**Yandex**" xalqaro monopoliyaga qarshi amaliyot bloki rahbari **P.Palkichev** tomonidan ham taklif va fikr mulohazalar bildirib o'tildi. Jumladan, raqamli platformalar juda ko'p tarmoqlarni qamrab olganligi uchun, ularning shu jihatlariga e'tibor qaratib, ustun mavqega ega bo'lgan deb e'tirof

etishda raqamli platformalarni turlarga ajratish kerak bo‘ladi degan mazmunda taklif bildirdi.

Tadbir davomida “**Click**” kompaniyasi vakili o‘z so‘zida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi. Jumladan, yuqoridagi taqdimotlardan ko‘rinyapdiki, soliq va monopoliyaga qarshi organ qonunchiligi o‘rtasida farq kelib chiqmoqda, natijada bu turli talqin qilishga olib keladi. Masalan bir kishi non pishirib sotadi va u endi tadbirkor hisoblanadi. Mahsulotini internet orqali sotsa birdaniga marketpleysga aylanib qoladi. Mutaxassisning taklifiga ko‘ra qonunchilikdagi shu kabi nomutanosibliklarni bartaraf etib qonun va qonunosti hujjatlarni bir biriga uygunlashtirish maqsadga muvofiqligini bildirib ot‘di.

Undan so‘ng “**Alifpay**” kompaniyasi vakili so‘z olib kompaniya hozirda jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotgan “bo‘lib to‘lash” (rassrochka) orqali mahsulotlarni realizasiya qilib kelayotganligi, mijozlarning ma’lumotlarini skoringdan o‘tkazish uchun "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi ma’lumotlaridan foydalанишими, ilgari ushbu xizmat turini kredit byurosining o‘zidan sharhnomasi orqali olganligini, hozirda bu xizmatni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali pulli asosda taqdim etilayotganligini bildirib, bu holatda endi rivojlanib kelayotgan mikromoliya tashkilotlariga qo‘srimcha moliyaviy yuklama bo‘layotganligini ta’kidlab o‘tdi.

Tadbir so‘ngida Raqobat qo‘mitasi va tadbir ishtirokchilari o‘rtasida O‘zbekistonda raqamli platformalar faoliyati jarayonida duch kelayotgan muammolar va ularning yechimlari, sohani tartibga solishda yondashuvlar yuzasidan fikr-mulohazalar almashinadigan muloqot maydonchasi yaratish maqsadida telegram ilovasida kanal (t.me/Digital_platforms_Uzbekistan) va guruh (t.me/Discussion_digital_platforms) tashkil etildi.

Ko‘tarilgan muammolar va takliflar yuzasidan Raqobat qo‘mitasi tomonidan kelgusida ayni vaqtida islab chiqilayotgan qonunosti xujjatlarida inobatga olinishi bildirib o‘tildi. Ochiq muloqotda ishtirok etgan mahalliy biznes vakillari, xorijiy investorlar va mustaqil ekspertlar sohaga oid o‘zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan to‘liq javoblar olishdi. Asosiysi, bu borada hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ko‘plab yangi takliflar berildi va ular asosida rejalar belgilanib, tegishli qarorlar qabul qilindi.